

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami
(2022-yil 18-may)

Toshkent – 2022

UDK: 81:301. 8:547.69.022 (354.1)

Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. I. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 530 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Lingvodidaktika kafedrasidan tayyorlangan.

Mas‘ul muharrir:

L.R.Raupova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

B.R.Mengliyev – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

G‘.H.Hamroyev – Ma‘naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Sh.S.Abdiraimov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

K.M.Mavlonova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida dots.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

I.A.Ishonxanova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida o‘qituvchisi.

D.A.To‘rayeva – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida katta o‘qituvchisi.

H.M.Ortiqova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida o‘qituvchisi.

F.A.Saidova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida o‘qituvchisi.

V.E.Alimbekova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida o‘qituvchisi.

D.O.Israfilov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida o‘qituvchisi.

H.M.Baxtiyorova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvodidaktika kafedrasida magistranti.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashining 2022-yil 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

3. Бодуэн де Куртенэ И. А. Избранные труды по общему языкознанию. Том II. - М.: Изд-во Академии наук СССР, 1963. – С. 15.
4. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социоллингвистика. –М., 2001. –С. 202

KOMPOZITSIYA USULIDA YUZAGA KELGAN MUALLIF NUTQI NEOLOGIZMLARI XUSUSIDA

Sarvinoz Mardonova, BuxDU
o‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada qo‘shma usulda yuzaga kelgan yangi muallif nutqi neologizmlari, ularning grammatik va semantik tabiati, hosil bo‘lish mezonlari, usullari yoritilgan. Har bir nazariy fikr badiiy asardan olingan parchalar bilan izohlangan, o‘z o‘rnida xulosalar chiqarilgan.

Annotation

The article covers the new author's speech neologisms, their grammatic and semantic nature, the criteria for formation, the methods that arise in a joint method. Each theoretical thought was explained by excerpts from an artistic work, in its place conclusions were drawn.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya usulida so‘z yasash, neologizm, muallif neologizmi, qo‘shma ot, sifat, fe‘l, ravish so‘z, ot+ot va sifat+ot modeli asosidagi murakkab so‘z.

Keywords: word-building, neologism in the way of composition, author neologism, compound noun, adjective, verb, adverb word, compound word on the basis of the noun+noun and adjective+noun model.

O‘zbek tilshunosligida kompozitsiya usulida so‘z yasalishi borasida barcha uchun tan olingan, umumiy fikr mavjud, deb bo‘lmaydi. Bu borada, ya‘ni qo‘shma (kompozitsiya) usulida so‘z yasalishi masalasida hal qilinishi lozim ishlar anchagina. Akademik A.Hojiyevning o‘zbek tili so‘z yasalishiga doir nisbatan oldingi tadqiqotlaridan birida ot va sifatlarning qo‘shma shakl (kompozitsiya usuli)da yasalishiga ko‘ra quyidagicha fikr bildiradi: “Kompozitsiya usuli bilan yasalgan, yasovchi asos va formant kabi komponentga ega bo‘lgan qo‘shma otlarning uch xil tipi bor. Bularda *obod, tepa, poya* so‘zlari format vazifasida qo‘llanadi. ...Kompozitsiya usuli bilan yasalgan leksik yasovchi asos va formatdan iborat tuzulmaga ega bo‘lmagan qo‘shma otlar ko‘proq miqdorda” [Xo‘jiyev, 1989: 103].

So‘z yasalishida muayyan bir qolipga ega va shunday yasalish qolipiga ega bo‘lmagan qo‘shma shakldagi sifatlar haqida ham yuqoridagi kabi fikrlar aytiladi. Qo‘shma sifatlarning hosil bo‘lishida [kam+ot], [ot+rang], [ot+sifat so‘zi], [ot+bop], [ot+talab], [umum+ot] kabilar ma‘lum bir so‘z yasalish tizimini hosil qilganligi ko‘rinadi [Xo‘jiyev, 2007:103-104]. Bu qoliplarning hosilalari sifatida *kamchiqim, kamhosil; jigarrang, moshrang, tillarang; darveshsifat, devonasifat; bizbop, qishbop; e‘tibortalab, mehrtalab; umumbadiiy, umumxalq* kabilar keltiriladi. Biroq mazkur

qoliplarning faoliyati ayni damda cheklangan. Aniqrog'i, bu qoliplar ma'lum bir davrda (XX asr davomida) faoliyatda bo'lgan, o'nlab nutqiy hosilalar yaratgan, bugunga kelib esa qolip faoliyati ancha sustlashgan.

Tahlilga tortilgan qoliplar onda-sondagina ayrim sof nutqiy yasama so'zlar hosil qilmoqda. Bu qatorda *kamsement, asfaltrang, baxmalsifat, nuqrasifat, qahvarang* kabilarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

A.Hojiyevning "O'zbek tili so'z yasalishi tizimi" kitobida ot, sifat hamda ravishning kompozitsiya usulida yasalishi rad etiladi [Xojiev, 2007]. Manbada fe'ldan tashqari boshqa turkum so'zlarning qo'shma shaklda kela olishi haqida fikr bildirilmaydi. Aksincha, qo'shma so'z, qo'shma shakldagi ot, sifat, ravish so'zlarning yasalishi so'z yasalish talablariga mutlaqo javob bera olmasligi ta'kidlanadi [Xojiev, 2007: 8-15]. To'g'ri, o'zbek tili lug'at qatlamida qo'shma shakldagi yangi ravishlarning yuzaga kelishi kuzatilmaydi. Lekin qo'shma shakldagi sof nutqiy, endigina qo'shma so'z yasalish qolipidan hosil bo'lgan ot va sifatlar yaralyaptiki, bu holat ot va sifatning qo'shma shaklda ham yuzaga kelayotganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, lug'atlarda mavjud qo'shma so'zlar til birliklari sanaladi, ularni izohli, izohsiz o'zbek lug'atlari qamrab olgan. Biroq badiiy adabiyotda – ijodkorlar ijod mahsulida amaldagi imlo va izohli lug'atlarda uchramaydigan nutqiy qo'shma so'zlar ham kuzatiladi. Buni esa qo'shma so'zlar tarkibining taraqqiyoti bilan baholash mumkin. Kuzatishlar ko'rsatadiki, qo'shma shakldagi yangicha nutqiy yasama ot va nutqiy yasama sifatning yasalish qolipini ko'pincha [ot+ot] tashkil etgan. Asarlarda muallif neologizmlari sifatida qo'llangan *kiyikso'qmoq, chaqmoqtuyoq, jayronko'z* (M.Yusuf), *telfonxat* (U.Azim), *qunduzqosh* (F.Afro'z), *daryodil* (M.Toir) kabi so'zlar qo'shma ot va sifatlariga misol bo'la oladi.

Xullas, ot va sifat turkumi qo'shma shakldagi so'zlar bilan ham boyib boryapti. Bunda ijodkorlarning so'z yasash (individual nutq neologizmlarini yaratish) dagi xizmatini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Masalan:

1. Shamollar ot solar Qo'shtegirmonga,
Osmonni supurar *nuqratan* terak. (I.Mirzo)
2. She'riyat bu qadim buyuk so'qmoq ekan,
Kiyikso'qmoq ekan, *kiyikso'qmoq* ekan. (M.Yusuf)
3. Raqsga tushar oltin yaproqlar,
Shitir-shitir *yomg'ir qo'shiqqa*. (B.Fazliddin)
4. Qo'ng'iroq qilib tur,
Telefonxat yoz. (U.Azim)

Misollarda *nuqratan, kiyikso'qmoq, yomg'ir qo'shiq, telefonxat* kabi [ot+ot] qolipi tarzidagi nutqiy yasama qo'shma so'zlar qo'llangan. Bularning bari o'ta yangi qo'shma shakldagi individual nutq neologizmlaridir.

Kuzatishlar ko'rsatdiki, qo'shma so'zlar yaratishda M.Yusuf ijodi shaklan va mazmunan yetakchilik qiladi. shoir ijodiy merosida *o'zbekmomo, kiyiknigoh, kiyikso'qmoq, to'yko'cha, sohibdil, oyqovoq, kulko'ra, lolayonoq, tillabarmoq, suvsambul, arslonpanja* va h.k. shaklan va mazmunan betakror so'zlar o'rinli qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Bularning yasalishi va misralarda qo'llanishida sun'iylik sezilmaydi.

Umuman, tilimizda qo‘shma so‘zlarning yasalishi davomli kechmoqda. Xususan, mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida yangi yasalmalar salmoqli o‘ringa ega. Misollarni kuzatamiz: *yulduzgul* (Osmon chamanida yulduzgul tering. I.Mirzo), *ko‘ngilshoh* (O‘z do‘stini o‘ylamaydigan/ Ko‘ngilshohning nimasi buyuk. B.Fazliddin), *chaqmoqtuyoq* (Chaqmoqtuyoq toyimdan/ Ayirmoqchi bo‘lishdi. M.Yusuf), *billurtan* (Qor – billurtan farishta. U.Azim), *Odamtoshlar* (Z.Mirzayeva).

Tahlilga tortilgan misollardan ko‘rinadiki, ijodkorlar qo‘shma so‘zlar yaratishda til qonuniyati uchun muhim bo‘lgan, ya‘ni so‘zlarning mazmuniy-mantiqiy, grammatik birikish usullari (til me‘yorlari)dan chekingan emas.

Quyida qo‘shma so‘z shaklidagi mualliflik neologizmlarini kuzatamiz:

Ot+ot shaklidagi qo‘shma otlar. Qo‘shma shakldagi muallif neologizmlari yaratishda M.Yusuf she‘riyati peshqadamlik qiladi. Ayrim misollarni kuzatamiz:

Qadim *O‘zbekmomo* kuyi yodimda,

Yodimda chechaklar kulgan chambili.

She‘rdagi *O‘zbekmomo* shaxs oti o‘zbek ayollarining o‘tmishdagi umumlashma obrazi bo‘lib, qo‘shma so‘z tarkibidagi *momo* so‘zi” hurmatli, ko‘pni ko‘rgan, e‘zoz-e‘tiborli ayol” ma‘no ifodasiga ega bo‘lib kelgan.

She‘riyat bu qadim buyuk so‘qmoq ekan,

Kiyikso‘qmoq ekan, *kiyikso‘qmoq* ekan.

Shoir she‘riyat yo‘li mushkulligini, hamma ham bu yo‘ldan yura olmasligini *kiyikso‘qmoqqa* qiyoslashi bilan ifoda etadi. O‘z o‘rnida topib aytilgan ushbu obrazli tasvir to‘laqonli estetik vazifa bajargan.

Muhabbatim, qaydasan, qalb ardog‘im,

Jayronko‘zim, qirlarga qolgan ohim.

Mazkur misrada *jayronko‘z* individual nutq neologizmi muhabbat so‘zining sifatlashi bo‘lib kelgan.

Bedapoya to‘ridagi juftin qidirib,

Sayray-sayray jimib qoldi bedana dilgir.

Suvsumbulni va‘dasiga ko‘mib ko‘ndirib,

O‘ynatgani olib ketdi irmoq qaygadir.

Boshqa bir misol:

Uyimizga bir kuni

Qarindoshlar to‘lishdi.

Chaqmoqtuyoq toyimdan

Ayirmoqchi bo‘lishdi.

Tahlilga tortilgan misollardagi *o‘zbekmomo*, *kiyikso‘qmoq*, *jayronko‘z*, *suvsumbul*, *chaqmoqtuyoq* kabilarning lug‘atlarda [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006-2008] o‘z ifodasiga ega emasligi ham ularning muallif neologizmlari bo‘la olishi dalili bo‘la oladi. Xuddi shu fikr quyida kuzatiladigan misollarga ham tegishli.

I.Mirzo she‘riyatida ham kompozitsiya usulidagi yangi yasalmalar nisbatan ko‘p uchraydi. Jumladan:

Jannatbog‘im, *hazrattog‘imsan*,

Mehrobimsan, sajdagohimsan

Sen onamsan, muqaddas Vatan!

Yagonasan, muqaddas Vatan!

Vatanni jannatga, bog'ga, sajdagohga qiyoslash an'anaviy (uzual) o'xshatishning yorqin ko'rinishidir. Biroq shoir bu kabi qiyoslarga qoniqmay vatanni "hazrattog'imsan" deya ta'riflaydi va chinakam badiiyat ta'minlanadi.

I.Mirzo quyidagi misolda *yo'Ichivin* mualliflik neologizmini qo'llab, hazilomuz ifoda yaratadi:

Yo'lda *yo'Ichivindek* horiganim rost,

Qirqqa kirib-kirmay qariganim rost.

Ot+ot shaklidagi yasama so'zga yana bir misol:

Raqsga tushar oltin yaproqlar

Shitir-shitir *yomg'ir* qo'shiqqa. (B.Fazliddin)

Ot+ot shaklidagi qo'shma sifatlar.

Hammasi *alpsifat*

Hammasi polvon. (U.Azim) Mazkur misolda qo'llangan *alpsifat* qo'shma sifati yangilik bo'yog'ga ega bo'lib, biror lug'at tarkibida uchramaydi.

F.Afuz ijodida ham ot+ot shaklidagi mualliflik sifatlari mavjud. Ijodkor *zadadil*, *qunduzqosh* kabi qo'shma so'zlar yaratgan:

Izlama talato'p bazmlararo

Zadadil kimsasiz qirlarda yayrab.

Bekzod Fazliddin she'riyatini kuzatar ekanmiz, unda *armonqiz* (Armonqizning ko'zi battar suzuklashdi/ She'rim o'qib kimning holi tuzuklashdi), *nurchehra* (Tizilmasa, mayli, yo'lingga hurlar/ Faqat bir nurchehra kutsa nigoron), *odamshoir* (Hali yuzingni yorug' qilaman/ Odamshoir bo'lib borganimdan so'ng), *gulqalam* (Tuyg'ular qo'limga gulqalam tutib/ Yurak toshar daqiq lahzalararo), *ko'ngilshoh* (O'z do'stini o'ylamaydigan/ Ko'ngilshohning nimasi buyuk?), *o'ydunyo* (O'ylayversang, o'ydunyoning o'yi bitmas/ Qo'li uzun tashvishlarning to'yi bitmas) va h.k. ot va sifat turkumiga tegishli mualliflik neologizmlariga duch kelamiz.

Xullas, qo'shma shakldagi individual nutq neologizmlari, odatda, ot+ot qolipi asosida yuzaga kelgan bo'lib, predmetlik hamda belgi-xusuiyat ma'no ifodalarini bildirishi bilan xarakterlanadi. Til me'yorlariga mos holda yaratilgan individual nutq neologizmlari leksik qatlamning boyishiga xizmat qiladi hamda betakror ifodalar, obrazlar yaratishda muhim o'rin tutishi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясашиши. –Т.: Ўқитувчи, 1989. 103-б.
2. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими. –Т.:Ўқитувчи, 2007.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли. – Т.: Ўзбекистон миллий энц.си. 2006-2008.

Qadimgi turkiy til leksikasida yuzaga kelgan o'zgarishlarni "Devoni lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq" asarlari misolida solishtirib o'rganish	263
Umurzoqova Marhabo	
Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili	267
Abdullayev Sarvar , Saydaliyev Muhammad Hoji	
Qur'on – tarjima – qur'on ilmlari	271
Asadov To'lqin, Azimova Aziza	
Toshpo'lat Ahmad she'riyati fonostilistikasi xususida	276
Yuldashova Nilufar Muxitdinovna	
Til o'rganish maqsadi va ta'lim faoliyati sifatida "vazifa"ning ta'riflari	280
Zaripov Rafiqjon	
Etnosotsiopragmatika maqsadi, vazifalari va tadqiq birliklari	283
Suvonov Zavqiddin	
Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi o'rganilishiga doir	286
To'rayeva Dildora	
Tilshunoslikda shaxsiy yozishmalarning lingvistik tadqiqi	290
Rozmetova Zamira, Mukhtarova Nozima	
Lexicography and terminography as the applied branches of lexicology.....	294
Abdullaeva Nodira	
Contemporary research in functional linguistics	298
Safarova Guzal	
Ijtimoiy hayotda tabu hamda evfemizmlarning o'rni va bu masalalarga oid qarashlar.....	303
Mukhamedova Lola	
French military terms in english language and it's translation into uzbek.....	307
To'raxo'jayeva A., Abdusattorova F.	
Ijtimoiy-siyosiy leksemalarni mazmuniy maydon asosida o'rganish	310
Turaeva Umida	
Linguistic peculiarities and problems of legal translation.	313
Сотимова Гулру	
Особенности неологизмов в общественно-политической лексике.....	316
Niyazova Gulnoraxon	
O'zbek va ingliz detektiv asarlari tilining qiyosiy pragmatik tadqiqi	321
Sultanova Shahnoza	
Terminologik tizimning shakllanishi	326
Zaripov Rafiqjon	
Etnosotsiopragmatikada amaliy mashg'ulotlarni tashkillashtirish, topshiriqlar va ular bilan ishlash	330
Mardonova Sarvinoz	
Kompozitsiya usulida yuzaga kelgan muallif nutqi neologizmlari xususida	334
Bayjigitov Omonulla	
Turkiy tillar frazeologiyasini tadqiq etish masalalari	338
Alimbekova Vazira	
Dardoq qishlog'ida ishlatiladigan uy-ro'zg'or buyumlari	343
Nizomiddinova Dildora	
Farg'ona viloyatidagi Bostonbuva ziyoratgohi – antroponekronimi xususida	347
Saidova Farida	
Hozirgi o'zbek lug'atchilik amaliyotida leksik sinonimlarga darajaviy yondashuv.....	349
Ortiqova Hamida	
Assotsiativ maydon va uning xususiyatlari	353
Nurmanov Furqat	
Badiiy asar tilining fonopoetik xususiyatlari	356